O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

«TURKIY XALQLARNING MA’NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TOSHKENT - 2025



bog'liqligi va ichki falsafiy chuqurligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ularning she'riyati mustaqillik davrining ruhiy-ma'naviy ko'zgusiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vohidov E. Tong nafasi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Parfi R. Tashrif. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1995.
3. Yusuf M. Ulug'imsan, Vatanim!. — Toshkent: Sharq, 1998.
4. Yo'ldoshev M. O'zbek she'riyati: yangi bosqich izlanishlari. — Toshkent: Fan, 2001.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
6. Normurodov A. She'riyat va zamon. — Toshkent: Yozuvchi, 2004.
7. Po'latov A. O'zbek lirikasi va yangi uslub. — Toshkent: Fan, 2010.
8. Internet manbalari: www.ziyouz.uz, www.kitobxon.com.

ZAMONAVIY O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA QAHRAMON OBRAZINING SHAKLLANISHI

Mo'minova Shohida Toshtemir qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi
uzbektili@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida qahramon obrazining shakllanishi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Dilshod Rajab va Anvar Obidjon ijodiga qaratilib, ularning bolalar qahramonlarini yaratishdagi badiiy va pedagogik yondashuvlari o'rganiladi. Maqolada qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ramziy tasvirlari va tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy bolalar adabiyoti, qahramon obraz, Dilshod Rajab, Anvar Obidjon, tarbiyaviy-ma'naviy maqsad, badiiy yondashuv, ramziy tasvirlar.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida har bir xalq o'z milliy qadriyatlari, tarixiy merosi va ma'naviy boyliklarini asrash va keyingi avlodga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu borada bolalar adabiyoti alohida o'rin tutadi. Zero, bolalar uchun yozilgan asarlar nafaqat estetik tarbiya, balki ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy kamolot uchun ham mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyoti ana shunday mas'uliyatli vazifani zimmasiga olgan adabiy yo'nalishlardan biridir. Ayniqsa, bolalar ongida ideal qahramon obrazini yaratish, ular orqali ezgulik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdirish – zamonaviy adiblarning ijodiy yondashuvi va mahoratini talab qiladi.

Bu maqolada zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida, xususan, taniqli ijodkorlar – Dilshod Rajab va Anvar Obidjonning asarlari asosida qahramon obrazining shakllanishi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor – qahramonlarning ruhiy

olami, ularning hayotga munosabati, til va uslub orqali ochilishi, shuningdek, pedagogik va badiiy yondashuvlarga qaratiladi.

"Bolalarga atalgan asarlar – bu inson qalbiga ochilgan eshikdir", – degan edi taniqli adabiyotshunos olim S. G'aniev[262]. Demak, ushbu eshikdan o'tayotgan bolaga qanday obrazlar ro'baro' bo'lishi nihoyatda muhim.

Zamonaviy bolalar adabiyotining taraqqiyoti

Mustaqillik yillarida o'zbek bolalar adabiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda milliylik, mustaqillik, vatanparvarlik, o'zlikni anglash, ekologiya, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar kabi mavzular keng yoritila boshladi. O'zbek adabiyoti tarixida bolalar uchun yozilgan she'r, ertak, hikoya va qissalar orqali yoshlarda ezgulikka, halollikka, mehnatsevarlikka bo'lgan muhabbat shakllantirilmoqda.

Adabiyotshunos M. Abduqodirovning ta'kidlashicha, "Mustaqillikdan keyingi davrda bolalar adabiyotida yangi izlanishlar, janrlar xilma-xilligi va obrazlar rang-barangligi kuzatilmoqda"[263]. Darhaqiqat, XX asrning ikkinchi yarmida bolalar adabiyotida asosan didaktik yondashuv ustuvor bo'lgan bo'lsa, XXI asrda esa badiiylik, til o'ziga xosligi, ichki dramatizm, obraz ruhiyatining ochilishi kabi jihatlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Zamonaviy bolalar adabiyotining rivojlanishida Dilshod Rajab, Anvar Obidjon, Husan Azim, Tog'ay Murod kabi ijodkorlar muhim rol o'ynaydi. Ularning asarlarida bolalar hayoti, ularning ichki kechinmalari, orzulari, tushunchalari badiiy tahlil asosida yoritiladi. Ayniqsa, hozirgi bolalar adabiyotida psixologik yondashuv kuchayib, qahramon obrazlari orqali bolaning ichki dunyosi ochib berilmoqda.

Shuningdek, bolalar uchun yozilgan adabiy asarlar endilikda faqatgina quruq axloqiy saboq emas, balki badiiy-estetik tarbiya vositasi sifatida ham qaralayapti. Bu esa yozuvchilardan didaktik yondashuvdan voz kechib, bolaning tafakkuri va his-tuyg'ulariga mos, tabiatiga yaqin obrazlar yaratishni talab etadi.

"Zamonaviy bolalar adabiyotida shunchaki yaxshi va yomon obrazlar emas, balki harakat, ruhiyat, o'sish jarayonida shakllanayotgan obrazlar muhim", – deb yozadi adabiyotshunos M. Rasulov[264].

Zamonaviy adiblar yaratgan qahramonlar ko'pincha real hayotdagi bolalar timsolida, o'ziga xos muammolari, orzu-istaklari bilan tasvirlanadi. Ularning obrazlari orqali bola o'zini tanib boradi, jamiyatdagi o'rnini anglaydi.

Qahramon obrazining adabiy talqini.

Adabiyotshunoslikda "qahramon" tushunchasi badiiy asarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. U voqealar rivojiga bevosita ta'sir etuvchi, muallif g'oyasini amalga oshiruvchi markaziy obrazdir. Bolalar adabiyotida esa qahramon obraziga yanada kengroq ma'no yuklanadi — u bolaning yosh xususiyatlariga mos, axloqiy-me'yoriy tushunchalarni singdiruvchi, ideal timsol bo'lishi lozim.

---

[262] S. G'aniev. Adabiy obraz va bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 14.

[263] M. Abduqodirov. Zamonaviy bolalar adabiyoti taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 33.

[264] M. Rasulov. Bolalar uchun yozmoq mas'uliyati. – "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2022/4. – B. 45.

Psixologlarning fikricha, yosh o'quvchi asardagi qahramon bilan o'zini qiyoslaydi, uni ideal sifatida qabul qiladi va uning harakatlarini ongli ravishda yoki ongsiz tarzda o'zlashtiradi. Shu sababli, adabiy qahramon bolaning dunyoqarashi shakllanishida muhim vosita hisoblanadi[265].

Adabiy jarayonda qahramonlar ikki asosiy yo'nalishda yaratiladi:

Ideal (pozitiv) qahramon – bolaning orzu-umidlarini ifodalaydi, ezgulik yo'lida kurashadi, sabr-toqatli, halol, mehnatkash, vatanparvar bo'ladi.

Reallikka yaqin (murakkab) qahramon – oddiy bola, kamchiliklari bor, ammo u o'sish, o'zgarish, tarbiyaviy rivojlanish jarayonidan o'tadi.

Zamonaviy bolalar adabiyotida ko'proq ikkinchi turdagi – real hayotga yaqin qahramonlar yaratilmoqda. Ular orqali mualliflar bola tabiatining murakkabligini, uning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va ijtimoiy muhitdagi o'rnini badiiy tarzda yoritadilar.

Adabiy qahramonning shakllanishida quyidagi asosiy omillar muhim o'rin tutadi:

1. Yoshga mos psixologik tasvir – qahramon bola bo'lishi bilan birga, uning ichki dunyosi, fikrlashi, his etishi tabiiy bo'lishi kerak.

2. Tarbiyaviy g'oya – qahramon orqali kitobxon axloqiy saboq oladi, ammo bu bevosita emas, badiiy vositalar orqali amalga oshiriladi.

3. Sarlavha, til va uslub uyg'unligi – qahramon obrazining ta'sirchanligi asar tili, uslubi bilan chambarchas bog'liq.

Adabiyotshunos G. Rajabova qayd etadi: "Zamonaviy bolalar asarlarida qahramon obrazini yaratishda stereotipdan voz kechish, jonli va o'zgaruvchan ruhiyatni tasvirlash ustuvorlik kasb etmoqda"[266].

Zamonaviy yozuvchilar obraz yaratishda metafora, ichki monolog, psixologik parallelizm kabi badiiy vositalardan samarali foydalanmoqda. Bu esa obrazga chuqurlik, hayotiylik va ishonchlilik baxsh etadi.

Dilshod Rajab asarlarida qahramon obrazining shakllanishi

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan Dilshod Rajab bolalar uchun yozilgan she'r, hikoya va ertaklarida o'ziga xos, hayotiy va ruhiy jihatdan boy qahramon obrazlarini yaratdi. Uning asarlarida qahramonlar oddiy bolalar timsolida gavdalanadi, ammo ularning ichki kechinmalari, fikrlari, his-tuyg'ulari badiiy mahorat bilan yoritiladi.

Dilshod Rajabning "Bahor keldi seni izlab", "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "O'g'lim, sen baxtlimisan?", "Bolangman desam, bolaman" kabi to'plamlaridagi qahramonlar hayotiyligi bilan ajralib turadi. Ular orqali bolalar mehr, sadoqat, rostgo'ylik, o'zlikni anglash kabi fazilatlarni o'rganadilar.

1. Ruhiy olamga chuqur kirish

Dilshod Rajab bolalar obrazlarini yaratishda ularning ruhiyatiga chuqur kiradi. Masalan, "O'g'lim, sen baxtlimisan?" nomli she'rida bola obrazining ichki

---

[265] M. Qurbonov. Adabiy obraz va psixologik portret. – Samarqand: Ma'naviyat, 2019. – B. 56.

[266] G. Rajabova. Zamonaviy bolalar adabiyoti poetikasi. – "Filologiya masalalari" jurnali, 2021/2. – B. 67.

kechinmalari onalik mehri orqali ochiladi. Bola dunyoni onasi orqali anglaydi, sevgini uning nigohida, tilida, bag'rida his qiladi:

...Sen tabassum qilganingda bahor ochiladi yuzimda,
Men bolaman yana — yuragingda yashayman, onajon...

Bu yerda qahramon bola tabiatini ifodalash orqali, aslida har bir bolaning orzusi - mehrda yashash istagi tasvirlangan. Qahramon ideal emas, balki his qiluvchi, sezuvchi, o'zini anglayotgan bola sifatida beriladi.

2. Bola tilida so'zlash

Dilshod Rajabning asarlarida qahramonlar real bolalardek fikrlaydi, ularning tili oddiy, samimiy, tabiatga yaqin. Bu esa ularni o'quvchiga yaqinlashtiradi. Masalan, "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" she'rida bola obrazining ichki olami Vatanga muhabbat bilan uyg'unlashadi:

Men sevaman bu yurtni,
Chunki unda o'rtoq, do'stim bor.
Onamning ifori bor har bir tongda,
Otamning duosi bor har bir qadamda...

Bu kabi qahramonlar orqali muallif yosh o'quvchini yurtsevarlikka chorlaydi, ammo bu chaqiriq nasihat tariqasida emas, balki bolaning ichki ehtiyoji sifatida beriladi.

3. Tarbiyaviy yo'nalishdagi obrazlar

Dilshod Rajab bolalar obrazlarini yaratishda har m tarbiyaviy jihatni yodda tutadi. U yozgan har bir bola qahramoni biror fazilatni aks ettiradi: mehr, sabr, tinchlikka intilish, rostgo'ylik. Ammo bu obrazlar sun'iy emas, balki hayotning o'zidan olingandek tabiiy va ishonarlidir.

Adabiyotshunos F. Inoyatova yozganidek: "Dilshod Rajab bolalar qahramonlari orqali ularning orzularini, quvonch va iztiroblarini mehr va samimiyat bilan ochadi. Bu esa obrazlarga jon, ruh va ta'sirchanlik baxsh etadi"[267].

Anvar Obidjon ijodida qahramonning adabiy portreti

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotining sermahsul va taniqli vakillaridan biri Anvar Obidjon ijodi bolalarga mo'ljallangan obrazlarning yuksak badiiylikda yaratilgani bilan ajralib turadi. Uning she'rlari, ertaklari, hikoyalari va dostonlarida qahramonlar ko'pincha nafaqat bolalar, balki jonli tabiat, qushlar, hayvonlar timsolida ham gavdalanadi. Bu esa uning asarlarida ramziylik, tasavvur kuchi va axloqiy-psixologik yondashuv uyg'unligini ko'rsatadi.

Anvar Obidjonning "Boychechak" she'riy to'plami, "Sehrli ko'zgu", "Musicha va mushuk", "Oqqarg'a" kabi ertak va hikoyalarida o'quvchining diqqat markazida bo'ladigan asosiy obraz — bola yoki tabiat bilan bog'liq personajdir. Har bir qahramon orqali u muayyan ijtimoiy-axloqiy masalani yoritadi.

1. Ramziy va badiiy yondashuv

---

[267] F. Inoyatova. Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati: g'oya va obrazlar olami. - "Ijod" jurnali, 2020/3. - B. 51.

Anvar Obidjon bolalar obrazini yaratishda ko'pincha ramziy tasvirlardan foydalanadi. Masalan, "Oqqarg'a" ertagida asosiy qahramon — qarg'a o'z shaxsiyati, qusurlari, soxta g'ururi sabab tanazzulga uchraydi. Bu yerda qarg'a obrazi orqali aslida bolalarga o'zini tanish, kamtarlik, do'stlik va mehr-muhabbat haqida saboq beriladi.

Men eng chiroyli qushman! – derdi u.

Ammo ko'zguda o'zining rangsiz, qop-qora qiyofasini ko'rgach, qarg'aning "ulug'ligi" so'nib qoldi...

Bunday obrazlar bola fikriga sodda, ammo mazmunan chuqur tarzda ta'sir etadi.

2. She'riy obrazning ichki ovozi

Anvar Obidjonning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ham qahramon ichki ovozga ega. Ular so'zlaydi, his qiladi, tabiat bilan "muloqot"da bo'ladi. Masalan, "Men tongman" she'rida qahramon obrazining metaforik shakli quyosh, tong nuri, uyg'onish bilan ifodalanadi:

Men tongman, har bir oyning ichra uyg'onaman,

Bolalarning tabassumida yong'inman...

Bunday qahramonlar zamonaviy bolaga umid, yashash zavqi, tinchlik va ezgulik g'oyalarini olib kiradi.

3. Tabiat orqali bola obrazini ochish

Ko'plab asarlarda Anvar Obidjon bola obrazini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki tabiat hodisalari, jonivorlar orqali ochadi. Bu uslub bolaning tasavvur rasini kengaytiradi, ularni fikrlashga chorlaydi. "Musicha va mushuk" hikoyasida mushuk o'ziga do'st orttirmoqchi bo'ladi, ammo yolg'on va hiyla uning yo'lini to'sadi. Bu yerda mushuk qahramoni — bola xarakterining bir jihatini anglatadi, u yuragida ezgulik bor bo'lsa-da, uni noto'g'ri yo'l bilan namoyon qilishga uringan.

Adabiyotshunos I. Mahmudov yozganidek: "Anvar Obidjon bolalar adabiyotida qahramon obrazini soddalik orqali badiiy yuksaklikka olib chiqdi. U bola fikrini, dunyoni qanday idrok etishini har bir satrda ifoda etishga intiladi"[268].

Xulosa

Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida qahramon obrazining shakllanishi har jihatdan mukammallikka intilgan badiiy izlanishlar mahsulidir. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida bu yo'nalishda faol ijod qilgan adiblar – xususan, Dilshod Rajab va Anvar Obidjon – bolalar uchun nafaqat o'qilishi oson, balki g'oyaviy-tarbiyaviy yuklamaga ega badiiy asarlar yaratdilar.

Dilshod Rajab bolalar qahramonlarini ruhiy kechinmalari, mehr va sezuvchanlik orqali ochgan bo'lsa, Anvar Obidjon ularni ramziy timsollar, she'riy-psixologik vositalar orqali ifoda etdi. Har ikki ijodkorning asarlarida bola

---

268 I. Mahmudov. Zamonaviy bolalar nasri: tahlil va talqinlar. – "Adabiy tanqid" jurnali, 2022/1. – B. 43.

obrazi zamonaviy dunyoni anglaydigan, o'z fikriga ega, axloqiy mezonlarga ega shaxs sifatida tasvirlanadi.

Ularning ijodidagi qahramonlar oddiy bola emas — o'z yurti, oilasi, tabiat bilan ruhiy bog'langan, ba'zan o'zini topishga intilayotgan, ba'zan esa boshqalarga saboq beruvchi idealga yaqin obrazlardir. Bu obrazlar orqali zamonaviy bola nafaqat o'zini anglaydi, balki o'zi yashayotgan muhitni, ijtimoiy qadriyatlarni ham qayta kashf etadi.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida qahramon obrazining shakllanishi muallifning estetik qarashlari, pedagogik maqsadlari va badiiy mahorati bilan chambarchas bog'liq. Dilshod Rajab va Anvar Obidjonning ijodiy tajribasi esa bu yo'nalishda katta maktab bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rajab, D. Bahor keldi seni izlab. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – 64 b.
2. Rajab, D. O'g'lim, sen baxtlimisan? – Toshkent: Sharq, 2020. – 80 b.
3. Obidjon, A. Boychechak. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 72 b.
4. Obidjon, A. Sehrli ko'zgu. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2021. – 100 b.
5. Inoyatova, F. Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati: g'oya va obrazlar olami // Ijod. – 2020. – №3. – B. 50–52.
6. Mahmudov, I. Zamonaviy bolalar nasri: tahlil va talqinlar // Adabiy tanqid. – 2022. – №1. – B. 42–44.
7. Saidova, M. O'zbek bolalar adabiyotida obraz muammosi // Filologiya masalalari. – 2019. – №2. – B. 37–41.
8. Nazarov, B. Bolalar adabiyotining nazariy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 144 b.

"SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI" HIKOYASIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI TASVIRIDA DETAL VA ISMLAR POETIKASI

Yulduz Mustafayeva Nortoji qizi
ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Gulnoza Jurayeva f.f.d.prof.
mustafayevayulduz333@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida qahramonlar ruhiyati tasviri va detallar poetikasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asarda Bayna momo obrazining ruhiy iztiroblari, yolg'izlik, g'azab va qasos hissiyotlari chuqur yoritiladi. Maqolada hikoyaning markaziy mavzulari – o'tmish va hozirgi zamon ziddiyati, adolat va zulm, insoniy qadriyatlar va ularning yemirilishi kabi masalalar tahlil etilgan. Tadqiqotda psixologik metod va kontekstual tahlil usullari qo'llanilib, Bayna momoning hayoti, sandig'idan chiqqan detallar (qamchi, xanjar, o'nta odam barmog'i va boshqalar) orqali inson ruhiyatining nozik qatlamlari ochib beriladi. Shuningdek, hikoyadagi ismlar poetikasi, xususan, "Bayna" va "Zamon*